

---

## AYRIM TUMANLARDA KICHIK TADBIRKORLARGA KREDITLAR BO'YICHA KOMPENSATSIYA BERILADI



### **Ayrim tumanlarda kichik tadbirkorlarga kreditlar bo'yicha kompensatsiya beriladi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son farmoniga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan, umumiy belgilangan shartlar doirasida 4 va 5-toifa tumanlaridagi kichik tadbirkorlarga quyidagilar taqdim etilishi belgilangan:

tijorat banklarining kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq Markaziy bank asosiy stavkasining 40 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun kompensatsiya;

tijorat banklari kreditlarining 75 foizigacha, biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik.

**Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo'limi inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-23 18:00:43